

TILSHUNOSLIKDA SO‘ZLARARO MA’NO MUNOSABATLARI

Avezova Rohila Abdusharipovna¹¹ Urganch davlat pedagogika institute ingliz tili o‘qituvchisiMAQOLA
MA'LUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:08.11.2024

Revised: 09.11.2024

Accepted:10.11.2024

KALIT SO‘ZLAR:

sinonimiya,
antonimiya, giponimiya,
omonimiya,
graduonimiya,
darajalanish, o‘shish,
pasayish, so‘zlararo
ma’no munosabatlari.

Ushbu maqolada tilshunoslik sohasida so‘zlararo ma’no munosabatlari muhokama qilinadi. So‘zlar orasidagi semantik aloqadorlar, ularning bir-biriga ta’siri va birgalikda ishlash xususiyatlari tahlil etiladi. Maqola so‘zlarning sinonim, antonim, omonimiya, giponimiya va graduonimiyaga oid munosabatlar o‘rganiladi.

KIRISH. Tilshunoslik sohasida so‘zlararo ma’no munosabatlari muhim ahamiyatga ega. Har bir so‘z o‘ziga xos ma’no va kontekstga ega bo‘lib, ular orasidagi o‘zaro aloqalar kommunikativ jarayonlarni shakllantiradi. So‘zlararo ma’no munosabatlarini o‘rganish, nafaqat tilni, balki jamiyat va madaniyatni ham yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Ushbu maqolada sinonimlar, antonimlar, polisemik so‘zlar va boshqa semantik munosabatlar tahlil qilinadi hamda ularning lingvistik va madaniy kontekstdagi ahamiyati ko‘rib chiqiladi.

Adabiyotlar Tahlili va Metodologiya

Mavzu bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar turli masalalarni qamrab oladi. Sinonimlar va antonimlar haqida ma'lumotlar O'zbek tilshunosligi tarixiga bag'ishlangan mualliflar asarlarida o'zifodasini topgan. Misol uchun, H. Jamolxonovning "Hozirgi o‘zbek adabiy tili" asarida so'zlararo munosabatlar tahlil qilinadi. Buning ustiga, A. Hojiyevning "O‘zbek tili sinonimlarining qisqacha lug‘ati" kitobi so'zlar va sinonimlar masalasini o'rganishga bag'ishlangan.

O'zbek tilshunosligida S.Isamuhamedova zamonaviy o'zbek adabiy tilidagi sinonimlar, A.Daniyarov sinonimlarning stilistik funksiyalari, R.Yunusov polisemiya va sinonimiyaning o'zaro munosabatlari. Tilshunos A. Xojiyev o'zbek tili sinonimlarining izohli lug'atini tuzib, o'zbek tilshunosligiga ulkan hissa qo'shgan. Giponimiya kategoriyasi ham jahon va o'zbek tilshunosligiga oid ilmiy ishlarda o'z aksini topgan. Xususan, giponimiyaning kognitiv jihatlarini I. Dilay, giperonim va giponim munosabatlari F.Feruchchi, giponimik leksikonning qurilishi masalasi L.Liu tomonidan tadqiq qilingan.

Borlikdagi barcha narsa – hodisalar bir – biri bilan uzviy bog'liqligi hammaga ravshandir. Xususan, tilda mavjud barcha birliklar o'zaro chambarchas bog'liq, ularning o'xshash va farqli tomonlari ham bor. Ularning ayrim xususiyatlari o'rganilgan bo'lsa, ba'zilar hamon o'z tadqiqini kutmoqda. Bu fikrni graduonimiya va sinonimiya hodisalari haqida ham qo'rqmasdan aytishimiz mumkin. Agar sinonim va uning xususiy tomonlari anchagina tadqiq etilgan bo'lsa, graduonimiya hodisasi talab darajasida tadqiq etilmagan.

Ushbu jarayonda tasniflash, solishtirish va tahlil qilish metodologiyalaridan foydalaniladi. So'zlararo ma'noni aniqlashda kontekstual tahlil va qismlarga ajratish metodlari qo'llaniladi. Lingvistik tadqiqotlar tajribalari, so'zlarni jamlash va ularni bir-biri bilan aloqasini aniqlashda ishtirok etadi.

Muhokama va Natija

O'zbek tilining sinonimlar lug'atida ma'nosi darajalanuvchi so'zlar ko'p hollarda sinonimlar sirasida berilar edi. Albatta, graduonimiya hodisasi maxsus ajratilmagach, ma'nosi darajalab ko'rsatuvchi so'zlar ko'p holatda turli sinonimik uyalar ichiga tarqatilib yuborilgan. Buning haqqoniy sabablari ham mavjud edi. Chunki sinonimlar ma'nosi bir – biriga yaqin bo'lgan so'zlarni o'z ichiga oladi.

So'zlararo ma'no munosabatlari o'zaro bog'liqlikni, ko'plab semantic qatlamlarni o'z ichiga oladi. Sinonimlar tilning boyligini ko'rsatadi hamda unda tilshunoslik, adabiyot va madaniyatga oid jarayonlarni ifodalaydi. Antonimlar esa fikrni aniqlik bilan ifodalashda yordam beradi, bu esa muloqotning samaradorligini oshiradi. Antonimiya o'zbek va Sinonimiya hodisasiga berilgan ta'riflar juda ko'p bo'lib, biz G. Yule tomonidan berilgan quyidagi izohni keltirib o'tishni joiz deb topdik: *"Two or more words with very closely related meanings are called synonyms. Antonimiya o'zbek va Sinonimiya hodisasiga berilgan ta'riflar juda ko'p bo'lib, biz G. Yule tomonidan berilgan quyidagi izohni keltirib o'tishni joiz deb topdik: "Two or more words with very closely related meanings are called synonyms. They can often, though not always, be substituted for each other in sentences. In the appropriate circumstances, we can say, What was his answer? or What was his reply? with much the same meaning"*⁶¹. Ya'ni sinonimlar bir birining o'rnida almashib qo'llansa

ham bir xil ma'noni ifodalaydigan so'zlarni ifodalaydi. Ammo, sinonimlar stilistik nuqtayi ingliz tillarida keng qamrovli o'rganilgan so'zlararo ma'noviy munosabatlardan biridir.

Polisemik so'zlar o'zaro muhokama va ijtimoiy kontekstda farq qiladi, bu kanallar orqali so'zning ma'nosi doimiy ravishda evolyutsiyalashib boradi. Shunday qilib, so'zlararo ma'no munosabatlari orqali ijtimoiy fikrlash va g'oyalar ma'lum yo'nalishda rivojlanadi.

Giponimiya kategoriyasi ham jahon va o'zbek tilshunosligiga oid ilmiy ishlarda o'z aksini topgan. Xususan, giponimiyaning kognitiv jihatlarini I. Dilay, giperonim va giponim munosabatlari F.Feruchchi, giponimik leksikonning qurilishi masalasi L.Liu tomonidan tadqiq qilingan.

Graduonimiya va sinonimiya hodisalarining o'zaro munosabati haqida O.Bozorov quyidagicha yozadi: "graduonimiya va sinonimiya hodisalari o'zlarining asos belgilariga ko'ra keskin farqlanadilar. Zero sinonimiya ikki va undan ortiq leksema va frazema sememalarining aynanligiga asoslansa, graduonimiya sememalar asosiy semalardagi gradatsiyali farqlanuvchiga tayanadi. Bundan sinonimlardagi asosiy ma'nolarning tengligi, graduonimiyada esa, teng emasligi ma'lum bo'ladi.

Xulosa. Tilshunoslikda so'zlararo ma'no munosabatlari so'zlarning ma'nosini chuqur tushunishga imkon beradi. Sinonimlar, antonimlar, polisemik va homonimik munosabatlarning tahlili tilning mavjud boyligini va ifodaviy potentsialini oshiradi. Ushbu tadqiqotlar orqali til o'rganishi, kommunikativ jarayonlar va madaniyatlararo aloqalarni rivojlantirish va takomillashtirish jarayonlarida foydali natijalarga erishiladi. So'zlararo munosabatlarning chuqur o'rganilishi, tilshunoslik va kommunikativ bilimlarni boyitishga hissa qo'shadi va bu borada yanada keng qamrovli tadqiqotlarni amalga oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar ro'yhati:

1. Bozorov O. "O'zbek tilida darajalanish" f.f.d.diss. Toshkent, 1997.
2. Djumabaeva J. "O'zbek va ingliz tillarida leksik graduonimiya" Monografiya. Toshkent, 2014.
3. Hojiyev A. "O'zbek tili sinonimlarining qisqacha lug'ati. Toshkent, 1963.
4. Jomolxonov H. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" Toshkent, 2005.
5. Orifjonova Sh. "O'zbek tilda lug'aviy graduonimiya" f.f.n.diss.avtoreferat.Toshkent, 1997.